



XIX ASRNING OXIRI- XX ASRNING BOSHLARIDA TURKISTON MA'RIFATPARVARLIK G'OYALARI

Ergashova Saidaxon Sirojiddin qizi

Andijon Davlat Universiteti talabasi

saidaxonergashova@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6449481>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 10-mart 2022

Ma'qullandi: 15-mart 2022

Chop etildi: 25-mart 2022

KALIT SO'ZLAR

Ma'rifatparvar, Muxtoriyat, Qrim, Ismoilbek Gaspirali, usuli jadid, Mahmudxo'ja Behbudiy, Ahad Donish.

ANNOTATSIYA

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda juda murakkab ijtimoiy- siyosiy hodisalar bilan uning madaniy hayotida ham tez va shiddatli o'zgarishlar ro'y berdi. Ma'rifatparvarlarimiz tomonidan yangi usul maktablari ochildi, darslik gazeta, jurnallar yaratildi. Yurtimizga chet el madaniyati kirib keldi rivojlanishimizga bu ham o'z hissasini qo'shdi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida siyosiy, madaniy iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qolgan mustamlaka tufayli rivojlanish past darajada bo'lgan o'lkada Turkiston ziyolilari chor Rossiyasining mustamlakachilik zulmidan qutulish, o'z milliy davlatchiligini tuzish iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga yo'l ochish, xalqqa ziyo tarqatish choralari ko'rdi. Bu borada jadidchilik harakati katta ro'l o'ynadi.

Jadidchilik ma'rifatparvarlikdan qudratli siyosiy harakatga qadar bo'gan murakkab rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Turkistondagi mustamlaka, uning turli tanazzulga yuz tutganligi, xalqning og'ir iqtisodiy ahvoli, jahonning taraqqiy etgan mamlakatlardan iqtisodiy jihatdan ortda qolishi, madaniy qoloqlik, ijtimoiy ongda turg'unlik-jadidlarni jahon taraqqiyoti tajribasidan foydalanib, tezlikda bu holatdan chiqish yo'llarini izlab topishga chorladi. Muammolarni hal etishdagi dastlabki yo'l sifatida ma'rifatparvarlik harakati yuzaga keldi.

Turkistonda Jadidchilik g'oyalari XIX asrning 90- yillaridan yoyila boshladi va bu harakat XX asrning 30- yillarigacha davom etib kelgan. Tarixchi olimlar jadidchilik harakatini quyidagi 3 bosqich:

1. XIX asr oxirlaridan- 1915- yilgacha ma'rifatchilik;
2. 1915- yildan- 1918- yil fevraligacha muxtoriyat;
3. 1918- yil fevraldan – 20- yillar oxirlarigacha mustabid sovetlar davridagi faoliyatiga bo'lib o'rganganlar.

Jadidchilik dastlab Rossiyaga qaram bo'lgan musulmon xalqlari orasida dastlab Qrimda XIX asrning 80- yillarida paydo bo'lgan. Uning asoschisi diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur egallagan Ismoilbek Gaspirali bo'lgan. Uning ham asosiy maqsadi insonlarni bilimli qilish bo'lgan. Ko'plab darsliklar yaratgan. Gazetalar ham tashkil qilib boshqa shaharlarga ham jadidchilikni yoygan.

XX asr boshlarida Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg'ona vodiysi shaharlarida



ham o'nlab "usuli jadid" maktablari ochildi. Uni bitirganlar orasida Turkiston ma'naviy- ma'rifiy dunyosining milliy uyg'onishiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatgan namoyondalar ajralib chiqqan. Uning birinchi qaldirg'ochlari Mahmudxo'ja Bexbudiy, Shakuriy, Siddiqiy Azjiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ashurali Zohiriy, Lutfulla Olimiy, Muhammadsharif So'fizodalar kabi ko'plab ulug'zotlardir.

Turkistonda ma'rifatparvarlik harakati ikki bosqichda kechdi. Birinchi davrda feodal tuzum va tartiblarini tanqid qilish, madaniy yangiliklarni egallash, Yevropaning turli tillarini o'rganishni targ'ib qilish, yangicha ilm- fanning ahamiyatini ko'tarish kabi masalalar ilgari surilgan. Ahmad Donish, Avaz O'tar, Furqat, Muqimiy, Zavqiy singari ma'rifatparvarlar yetishib chiqqan. Ikkinchi bosqichda ma'rifatchilikdan jadidizm o'sib chiqdi ular yangicha ta'lim tarbiya, yangi usul maktablarini yo'lga qo'yish, dunyoviy ilmlarni har tomonlama egallash maorif va madaniyatda yangi tartiblarni o'rnatishni oz oldiga maqsad qilganlar. Yurtimizda Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abduqodir Shakuriy va boshqalar tomonidan ko'plab yangi usul maktablari ochiladi va darsliklar, qo'llanmalar yaratiladi.

Jadidlar kurashining 3 asosiy maqsadlari:

1. Yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish.
2. Umidli, iqtidorli yoshlarni chet elga o'qishga yuborish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://hozir.org>> Ma'rifatparvarlar va Jadidchilik
2. "Jadidchilik: isloxot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash" Toshkent "Universitet" 1991.

3. Turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalarni chop etish bo'lgan.

Yurtimizda quyidagilarni amalga oshirishga ko'plab ziyolilarimiz harakat qilganlar. Jadidchilarimiz chet davlatlar Rossiya, Turkiya, Misr va boshqa mamlakatlar jadidchilik harakatlari bilan xabardor bo'lishga harakat qilganlar. U yerlarga borib o'zaro ularni ta'limi bilan tanishib, ularni o'rganib kelishgan. Bundan maqsad chet davlatlar ta'limini yurtimizga olib kelish bo'lgan. Ma'rifatparvarlikning yangi to'lqinida 1913- 1915- yillarida "Samarqand", "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona", "Buxoroi sha'rif", 1917- yilda esa "kengash", "Xurriyat", "Ulug' Turkiston", gazetalari va "Oyna" jurnali kabi ommaviy axborot vositalari ham paydo bo'ldi. Jadidlarning nashrlari xalqni yangi davr boshlangani bilan tanishtirar ekan, o'zligini anglab uyushishga chaqirdi.

Keyinchalik yurtimizda ham yangi usul maktablari soni tobora ortib boradi. Ko'p insonlar bilim egallay boshlaydi. Jadidchilik harakati dastlab qabul qilinmagan bo'lsada ularni urinishlari besamar ketmagan. Yurtimizdagi hozirgi o'zgarishlarga ham bugungi kunga yetib kelishimizda jadidlarimizning o'rni beqiyosdir.

Jadidchilarimizni bunday ishlarni amalga oshirishlari osonlik bilan b'lmagan. Ko'plab qiyinchilik va taxdidlar ostida bo'lishsa ham yurtimizi mustaqillikga olib chiqishga jon- jahdi bilan harakat qilganlar.